International

scientific and practical conference

DECEMBER 6
2024

2024



STDF

Science technology& Digital finance

Google Scholar

The main directions of socio-economic development of New Uzbekistan: problems and solutions

MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

JIZZAKH BRANCH OF THE NATIONAL UNIVERSITY OF UZBEKISTAN NAMED AFTER MIRZO ULUGBEK

Scientific journal of Science technology & Digital finance

The main directions of socio-economic development of New Uzbekistan: problems and solutions collection of materials of the international scientific and practical conference on the topic

(December 6, 2024)

(Part 1)

Jizzakh-2024

Department of Economics and tourism of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
6.12.2024

The main directions of socio-economic development of New Uzbekistan: problems and solutions collection of materials of the international scientific and practical conference on the topic – Jizzahk: Department of economics and tourism of Jizzakh branch of the national university of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, December 6, 2024, 450 pp.

Editors in charge: DSc.prof. Turakulov O.X., PhD. O'ralov A.I.

In the collection of materials of the conference, the role and role of Science, Education and production in the era of globalization, the pressing problems of the issues of interaction of these processes, feedback on their solutions were presented by mature specialists of the field.

In addition, research on the scientific and practical topic, carried out in the economics, Exact Sciences, Natural Sciences and socio-humanities during the globalization period, information is presented in the scientific and practical fields, which includes the latest innovative technologies in the fields of production.

It can be argued that this collection is one of the specific intersections of current thoughts and innovative ideas of the world of science. This scientific and practical conference was actively attended by professors and scientific researchers engaged in scientific research in Uzbekistan and foreign countries. In increasing the position of the scientific and practical conference, the professors and teachers of domestic and foreign higher educational institutions made a significant contribution.

Professors and teachers of foreign higher educational institutions who actively participated in the work of the conference made a worthy contribution to the high level of interaction with scientists of our country. The processes of international cooperation with foreign countries and exchange with them in the field of Science in the era of globalization have a positive effect on the development of Higher Education, the fields of Science and production. The materials of this conference are special in that they include a wide range of research, from theoretical developments to practical solutions, demonstrating the diversity of approaches and directions in this area.

In conclusion, it should be noted that this scientific and practical conference will be a very useful collection for everyone who is interested in modern research in the fields of further development of Higher Education, Science, Education and production in the era of globalization. The authors are responsible for the content and quality of the articles and abstracts included in the collection.

SECTION 5.
ANALYSIS OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE FIELD OF CONSTRUCTION AND ENERGY: RESULTS AND PROSPECTS

SANOAT TARMOQLARINI HUDUDIY RIVOJLANTIRISHNING MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI



Raximov Anvar Norimovich
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasi mudiri, PhD, Dotsent.
e-mail: sanjar.8548@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada sanoat tarmoqlarini hududiy rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari hozirgi kundagi dolzarb mavzularidan biri ekanligi, sanoat tarmoqlarini hududiy rivojlantirish jarayonida bir qator muammolar keng yoritib berilgan. Sanoat tarmoqlarini hududiy rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari sxema ko‘rinishda tasvirlab berilgan.

Kalit so‘zlar: sanoat tarmog‘i, prospektorlar, transport infratuzilmasi, energetika infratuzilmasi, xorijiy investorlar, texnologiya transferi, reaktorlar, bozor qamrovi, geografik doira, vertikal maydon, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, avtomatlashtirilgan tizimlar, raqamli boshqaruv, zamonaviy texnologiyalar.

Sanoat tarmoqlarini hududiy rivojlantirish ko‘plab xususiyatlarga ega bo‘lib, ularni rivojlanishi ko‘pincha iqtisodiy va tabiiy resurslarning geografik joylashuviga asoslanadi. Masalan, kon sanoati yoki energetika tarmoqlari ko‘pincha tabiiy resurslar ko‘p joylashgan hududlarda rivojlanadi. Boshqa sanoat tarmoqlari esa inson resurslariga yaqin hududlarda rivojlantiriladi. Sanoat tarmoqlarini rivojlantirish uchun transport, energetika va aloqa infratuzilmasi ham muhim ahamiyatga ega. Mavjud infratuzilmaning rivojlanish darajasi va uning qulayligi hududiy sanoat markazlarini tashkil etishda katta rol o‘ynaydi. Hududiy rivojlanish jarayonida texnologik yangilanish va innovatsiyalarni joriy qilish muhimdir. Sanoat tarmoqlarida yangi texnologiyalarni qo‘llash ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bilan birga hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ham hissa qo‘shadi. Hududiy sanoatni rivojlantirishda xorijiy investorlarni jalb qilish va texnologiya transferi katta ahamiyatga ega. Bu hududiy sanoat tarmoqlarining xalqaro bozorga chiqishiga va raqobatbardoshliligini oshirishga yordam beradi. Sanoat tarmoqlarini hududiy rivojlantirishda ekologik omillarni hisobga olish muhimdir.

Hududiy ixtisoslashuv deganda ma’lum bir geografik hududda iqtisodiyotning yoki sanoat tarmoqlarining muayyan sohalarga yoki faoliyat turlariga ixtisoslashuvi tushuniladi. Bunda hududda mavjud tabiiy resurslar, ishchi kuchi, infratuzilma va boshqa omillar asosida ma'lum tarmoqlar ustuvor yo‘nalish sifatida rivojlanadi.

Department of Economics and tourism of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
6.12.2024

Sanoat uchun kelajakdagi istiqbolni ko‘rsatishning real va uzoq muddatli rejalari bor. (Tasviriy bayonotlarni shiorlar yoki mottolar bilan chalg‘itmaslik kerak [1]) Tasviriy bayonot tashkiloti uchun uzoq muddatli kelajakning hayotiy sharoitini taqdim etish uchun mo‘ljallangan. Bu “biznes doirasining aniq ifodalangan bayonoti” kuchli ko‘rish bayonoti odatda quyidagilarni o‘z ichiga oladi:[2]

- Bozorning qamrovchanligi;
- Geografik doirasi;
- Vertikal maydon;

Sanoat tarmoqlarini hududiy rivojlantirish jarayonida bir qator muammolar yuzaga kelishi mumkin. Ushbu muammolar sanoatning samarali rivojlanishini sekinlashtirishi yoki to‘xtatib qo‘yishi mumkin:

1. Infratuzilmaning rivojlanmaganligi yoki yetarli darajada rivojlanmaganligi hududiy sanoatning o‘sishiga jiddiy to‘siq bo‘ladi. Yomon yo‘llar, energetika ta’minotidagi uzilishlar, suv va aloqa infratuzilmasining yetishmovchiligi sanoat korxonalari samaradorligini pasaytiradi va yangi investitsiyalarni jalb qilishni qiyinlashtiradi;

2. Hududiy sanoatni rivojlantirish uchun yetarli darajada moliyaviy resurslarga ega bo‘lish zarur. Ko‘pgina hududlarda davlat yoki xususiy sarmoyalar yetishmovchiligi rivojlanishni sekinlashtiradi. Kredit mablag‘lari va investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlari cheklangan bo‘lishi sababli yangi korxonalar tashkil etish yoki mavjudlarini kengaytirish qiyinlashadi;

3. Ba’zi hududlarda malakali ishchi kuchining yetishmasligi hududiy sanoat rivojlanishidagi asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Maxsus bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan xodimlar yetishmasligi korxonalarning samarali faoliyat ko‘rsatishini cheklaydi va yangi texnologiyalarni joriy etishda qiyinchiliklar tug‘diradi;

4. Ko‘pgina hududiy sanoat korxonalari eski texnologiyalar va uskunalar bilan ishlashadi. Innovatsiyalar va zamonaviy texnologiyalarning yetarli darajada joriy qilinmaganligi korxonalarni raqobatbardoshligini kamaytiradi. Bu, o‘z navbatida, hududiy sanoatning rivojlanishiga salbiy ta’sir qiladi;


5. Hududiy sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni bozorga chiqarish uchun yetarli infratuzilma va tizimli marketing strategiyalarining yo‘qligi korxonalar uchun katta muammo bo‘lishi mumkin. Mahalliy va xalqaro bozorlarga kirish imkoniyatining cheklanganligi hududiy sanoat rivojlanishini sekinlashtiradi;

Fikrimizcha, sanoat tarmoqlarini hududiy rivojlantirishning, muammolarini bartaraf etishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari, sanoat tarmoqlarini hududiy rivojlantirishda yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etish uchun tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar muhim rol o‘ynaydi.

Hududiy sanoat tarmoqlarini rivojlantirishdagi muammolarni bartaraf etish uchun davlat va xususiy sektor o‘rtasida samarali hamkorlik, iqtisodiy va tashkiliy choralarning kompleks yondashuvi zarur. Soliq imtiyozlari, investitsiyalarni jalb qilish, malakali kadrlar tayyorlash, infratuzilmani rivojlantirish va innovatsion

texnologiyalarni joriy etish kabi chora-tadbirlar hududiy sanoatning barqaror rivojlanishiga yordam beradi.

Maxsus iqtisodiy zonalar va sanoat klasterlarini tashkil etish hududiy sanoat rivojlanishining muhim mexanizmidir. Bunday zonalar sanoat korxonalariga qulay biznes muhiti yaratadi, jumladan, soliq va bojxona imtiyozlari, arzon infratuzilma va boshqa yordam ko‘rsatadi. Sanoat klasterlari esa korxonalar o‘rtasida hamkorlikni rag‘batlantiradi va innovatsion salohiyatni oshiradi. Buning uchun sanoat klasterlari va texnologik parklar tashkil etish, maxsus iqtisodiy zonalarni rivojlantirish hamda hududiy sanoat kooperatsiyasini qo‘llab-quvvatlash lozim.



1-rasm. Sanoat tarmoqlarini hududiy rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.

Ushbu 1-rasmda davlat qo‘llab-quvvatlashi, investitsiyalar, kadrlar tayyorlash va innovatsion klasterlar bo‘yicha asosiy mexanizmlar tasvirlangan.

Sanoat korxonalari uchun zamonaviy infratuzilmani yaratish muhim ahamiyatga ega. Transport, energetika, aloqa va logistika tizimlarini yaxshilash orqali sanoat korxonalarining samaradorligi oshirilishi mumkin. Bu hududiy sanoatning raqobatbardoshligini oshirishga quyidagicha yordam beradi:

- Transport va logistika infratuzilmasini rivojlantirish.
- Energetika va aloqa tarmoqlarini kengaytirish va modernizatsiya qilish.
- Hududiy sanoat korxonalari uchun infratuzilmaviy loyihalarga davlat investitsiyalari ajratish.

Olib borilgan tahlillarimiz hududiy sanoat rivoji uchun malakali ishchi kuchi zarur. Oliy va o‘rta maxsus ta'lim muassasalari va kasb-hunar markazlari sanoatning maxsus talablariga javob beruvchi kadrlarni tayyorlashda muhim rol o‘ynaydi. Davlatning hududiy rivojlanish strategiyalari va sanoatni qo‘llab-quvvatlash

Department of Economics and tourism of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
6.12.2024

mexanizmlari sanoat tarmoqlarining rivojlanishida asosiy omil hisoblanadi. Soliq imtiyozlari, subsidiyalar va davlat sarmoyalari sanoat tarmoqlarini hududiy rivojlantirish uchun qo‘llaniladi. Hududiy sanoatning rivojlanishi mahalliy iqtisodiyotga, jumladan, ish o‘rinlari yaratish va aholining yashash darajasini oshirishga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, bu ijtimoiy muammolarni, masalan, shaharlar atrofida haddan tashqari ko‘chib kelish va aholi zichligini oshirishi mumkin. Ushbu omillarni hisobga olib, sanoat tarmoqlarini hududiy rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari va rivojlanish yo‘nalishlari har bir hududning imkoniyatlari va talablari asosida aniqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Lucas, James R (February 1998). "Anatomy of a Vision Statement". Management Review (American Management Association) 87 (2): 22–26.

2. Aaker, David A. Strategic Market Management, 6th, Wiley, July 26, 2001 — 28–29-bet. ISBN 9780471415725. OCLC 963663563. Qaraldi: 2021-yil 6-may.

3. Рахимов А., Эшонқулов Ж. Саноат корхоналарида ишлаб чиқаришнинг иқтисодий қувватини ошириш механизми //Iqtisodiyot va ta’lim. – 2022. – Т. 23. – №. 6. – С. 390-395.

4. Рахимов А. Н., Лукманов М. Х. Саноат корхоналари фаолияти иқтисодий самарадорлигини оширишнинг эконометрик модели //Scientific Impulse. – 2023. – Т. 1. – №. 9. – С. 72-80.

5. Rakhimov A., Ravshanova M., Alieva M. Econometric analysis of increasing efficiency of industrial enterprises //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – Т. 458. – С. 04004.

6. Norimovich R. A., Namazovna A. N. Evaluative indicators of increasing the production efficiency of industrial sectors //Образование наука и инновационные идеи в мире. – 2024. – Т. 42. – №. 1. – С. 6-14.

Department of Economics and tourism of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek